

Demografik holat

(dastlabki ma'lumotlar)

Doimiy aholi soni. Farg'ona viloyati doimiy aholisi soni 2018 yil 1 aprel holatiga 3631,0 ming kishini tashkil etib, 2018 yilning yanvar-mart oylarida 55,3 ming kishiga yoki 1,6% ga o'sgan. Jumladan, shahar aholisi soni 2055,6 ming kishini (jami aholi sonidagi ulushi 56,6 %), qishloq aholisi soni 1575,4 ming kishini (43,4 %) tashkil etdi.

E'tibor bering: 2018 yil yanvar-mart

- Aholi soni **101,6 ming kishiga** ko'paydi.
- Tirik tug'ilganlar soni **15,2 ming nafarni** tashkil etdi.
- 4,0 mingta** vafot etganlar qayd etildi.
- FHDYO bo'limlariда **5,4 mingta nikoh** va **0,8 mingta ajralishlar** ro'yxatga olindi.

Farg'ona viloyati aholisining umumiyo'sishi (2018 yil yanvar-mart oylarida)

Tirik tug'ilganlar
15,2 ming bola



Vafot etganlar
3,9 ming kishi


Ko'chib kelganlar
3,7 ming kishi

Mexanik o'sish (kamayish)
-0,5 ming kishi

Ko'chib ketganlar
4,2 ming kishi


Demografik holat

Hududlar kesimida doimiy aholi sonining taqsimlanishi (2018 yil 1 aprel holatiga, viloyat jami aholisiga nisbatan, %da)



Viloyat hududlari kesimida tahlillar shuni ko'ssatmoqdaki, 2018 yil 1 aprel holatiga eng ko'p aholi soni Farg'ona shahrida 279,8 ming kishini (viloyat aholisi sonidagi ulushi 7,7 %ni) va Quva tumanida 249,0 ming kishini (6,9 %), aksincha eng kam aholi soni Quvasoy shahrida 90,5 ming kishini (2,5%) va So'x tumanida 75,0 ming kishini (2,1 %) tashkil etdi.

Hududlar kesimida aholining eng yugori o'sish sur'ati 2017 yilning mos davriga nisbatan Bog'dod, Uchko'prik, Rishton, So'x va Toshloq tumanlarda 1,8 % ga, O'zbekiston va Qo'shtepa tumanlar 1,6 %ga, aksincha eng kam o'sish sur'ati Qo'qon shahar 1,0 %ni, Marg'ilon shahar va Farg'ona tumani 1.3% ni tashkil etdi.



Demografik holat

Tug'ilish. 2018 yilning yanvar-mart oylarida 15,2 mingta bola tug'ilganligi qayd etilgan bo'lib (bu yerda va bundan keyin tug'ilganlarga faqat tirik tug'ilganlar inobatga olingan), mos ravishda 1000 aholiga nisbatan tug'ilish koeffitsiyenti 17,0 promilleni tashkil etib, 2017 yilning mos davriga nisbatan 0,7 promillega kamaygan (2017 yilning yanvar-mart oylarida 17,7 promille bo'lган).

Tug'ilish koeffitsiyenti 2017 yilning mos davriga nisbatan Quvasoy shaharda (16,0 promilledan 18,5 promillega) va Farg'ona tumani (18,6 promilledan 19,8 promillega) sezilarli o'sgan bo'lib, aksincha kamayish esa So'x (17,8 promilledan 13,7 promillega), Dang'ara (20,6 promilledan 17,3 promillega) va Beshariq (17,1 promilledan 14,7 promillega) tumanlarida kuzatildi.

Ma'lumot uchun

Tirik tug'ilganlik mezonlaridan (nafas, yurak urishi, kindik pulsatsiyasi, muskullarning beixtiyoriy qisqarishi) biri mavjud bo'lsa ham bola tirik tug'ilgan hisoblanadi. Bunda onaning homiladorlik muddati 22 hafta va undan ortiq, bolaning bo'yи 25 sm va undan ortiq, vazni 500 gramm va undan ortiq bo'lishi lozim.

Shahar va tumanlar bo'yicha tug'ilganlar soni, yanvar-mart (kishi)

	2017 y.	2018 y.	O'sish sur'ati, %
Farg'ona viloyati	15546	15233	98,0
Farg'ona sh.	1032	1038	100,6
Qo'qon sh.	1004	1030	102,6
Quvasoy sh.	357	412	115,4
Marg'ilon sh.	996	1000	100,4
Oltiariq	840	823	98,0
Qo'shstpa	838	799	95,3
Bog'dod	861	847	98,4
Buvayda	910	884	97,1
Beshariq	898	798	88,9
Quva	997	959	96,2
Uchko'priq	1022	1035	101,3
Rishton	825	825	100,0
So'x	317	252	79,5
Toshloq	961	897	93,3
O'zbekiston	986	1004	101,8
Farg'ona	906	999	110,3
Dang'ara	839	709	84,5
Furqat	484	461	95,2
Yozyovon	473	461	97,5

Demografik holat

Vafot etganlar. 2018 yilning yanvar-mart oylarida 3,9 mingta o'lim qayd etilgan bo'lib, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan o'lim koeffitsiyenti 4,4 promilleni tashkil etib, 2017 yilning mos davriga nisbatan 0,6 promillega kamaydi (2017 yilning yanvar-mart oylarida 5,0 promille bo'lган).

O'lim koeffitsiyenti 2017 yilning mos davriga nisbatan Yozyovon tumanida (4,0 promilledan 4,7 promillega), Farg'ona tumanida (4,7 promilledan 4,8 promillega) Bog'dod tumanida (4,5 promilledan 4,6 pronillega) o'sgan bo'lib, sezilarli darajada kamayishi Qo'qon shahrida (6,5 promilledan 4,6 promillega), So'x (3,9 promilledan 2,6 promillega), Oltiariq (4,7 promilledan 3,6 promillega) va Buvayda (4,3 promilledan 3,2 promillega) tumanlarida kuzatildi.

Shahar va tumanlar bo'yicha o'lganlar soni, yanvar-mart (kishi)


	2017 y.	2018 y.	O'sish sur'ati, %
Farg'ona viloyati	4436	3963	89,3
Farg'ona sh.	408	352	86,3
Qo'qon sh.	391	276	70,6
Quvasoy sh.	100	92	92,0
Marg'ilon sh.	294	281	95,6
Oltiariq	236	182	77,1
Qo'shtepa	247	217	87,9
Bog'dod	222	235	105,9
Buvayda	226	173	76,5
Beshariq	253	245	96,8
Quva	292	252	86,3
Uchko'prik	241	223	92,5
Rishton	231	191	82,7
So'x	69	48	69,6
Toshloq	242	219	90,5
O'zbekiston	282	250	88,7
Farg'ona	234	242	103,4
Dang'ara	204	201	98,5
Furqat	161	162	100,6
Yozyovon	103	122	118,4

Demografik holat

2018 yilning yanvar-mart oylarida qayd etilgan vafot etganlarning 65,3 %i qon aylanish tizimi kasalliklaridan, 7,8 %i o'simtalardan, 6,2 %i ovqat hazm qilish a'zolari kasalliklaridan, 5,4 %i baxtsiz hodisa, zaharlanish va jarohatlanishlardan, 3,8 %i nafas olish a'zolari kasalliklaridan, 1,3 %i yuqumli va parazitar kasalliklardan hamda 10,2 %i boshqa kasalliklardan vafot etgan.

Ro'yxatga olingan 1 yoshgacha vafot etgan bolalar soni 0,1 ming nafarni tashkil etib, ularning 45,2 %i perinatal davrda yuzaga keladigan holatlardan, 18,2 %i nafas olish a'zolari kasalliklaridan, 27,8 %i tug'ma anomaliyalardan, 1,7 %i baxtsiz hodisa, zaharlanish va jarohatlanishlardan, 4,3 %i yuqumli va parazitar kasalliklardan, 1,7 %i ovqat hazm qilish a'zolari kasalliklaridan va 1,1 %i boshqa kasalliklardan vafot etgan.

Asosiy o'lism sabablari bo'yicha vafot etganlarning taqsimlanishi (jami vafot etganlarga nisbatan, %da)



2018 yil yanvar-mart

Tabiiy o'sish. 2018 yilning yanvar-mart oylarida aholining tabiiy o'sishi 11,3 ming kishini tashkil etib, 2017 yil mos davriga nisbatan 0,2 ming kishiga (2017 yilning yanvar-mart oylarida 11,1 ming kishi bo'lgan) o'sgan.



Tabiiy o'sish:
11,3 ming kishi

Demografik holat

Nikoh va nikohdan ajralishlar. 2018 yilning yanvar-mart oylarida FHDYO organlari tomonidan 5,4 ming nikoh va 0,9 mingta nikohdan ajralishlar qayd etildi, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan nikoh tuzish koeffitsiyenti 6,1 va 1,0 promilleni tashkil etdi.



Shahar va tumanlar bo'yicha nikohlar va ajrimlar soni, yanvar-mart (birlik)

	<i>Tuzilgan nikohlar</i>			<i>Nikohdan ajralishlar</i>		
	<i>2017 y.</i>	<i>2018 y.</i>	<i>O'sish sur'ati, %</i>	<i>2017 y.</i>	<i>2018 y.</i>	<i>O'sish sur'ati, %</i>
Farg'ona viloyati	4705	5426	115,3	886	897	101,2
Farg'ona sh.	259	273	105,4	115	102	88,7
Qo'qon sh.	274	347	126,6	119	105	88,2
Quvasoy sh.	73	95	130,1	33	28	84,8
Marg'ilon sh.	132	127	96,2	60	52	86,7
Oltiariq	283	322	113,8	31	29	93,5
Qo'shtepa	124	155	125,0	30	30	100,0
Bog'dod	291	372	127,8	41	47	114,6
Buvayda	258	302	117,1	42	46	109,5
Beshariq	493	618	125,4	62	46	74,2
Quva	358	417	116,5	57	59	103,5
Uchko'prik	304	296	97,4	43	32	74,4
Rishton	327	371	113,5	28	52	185,7
So'x	164	198	120,7	10	19	190,0
Toshloq	162	178	109,9	37	41	110,8
O'zbekiston	394	466	118,3	50	66	132,0
Farg'ona	265	293	110,6	51	42	82,4
Dang'ara	245	271	110,6	27	31	114,8
Furqat	185	222	120,0	30	34	113,3
Yozyovon	114	103	90,4	20	18	90,0

Demografik holat

Migratsiya. 2018 yil yanvar-mart oylarida viloyat bo'yicha ko'chib kelganlar soni 3,7 ming kishini, ko'chib ketganlar soni esa 4,2 ming kishini tashkil etdi. Migratsiya saldosi minus 0,5 ming kishi bo'lib, 2017 yilning mos davrida minus 0,6 ming kishi bo'lган.

Aholi migratsiyasi (ming kishi)

	2017 yil yanvar-mart	2018 yil yanvar-mart
Ko'chib kelganlar	3,7	3,7
Ko'chib ketganlar	4,3	4,2
Migratsiya saldosi	- 0,6	- 0,5

Migratsiya saldosining yuqori darajasi Marg'ilon Qo'qon shaharlarda (minus 0,3 ming kishi), Farg'ona (minus 0,2 ming kishi), Buvayda (minus 0,1 ming kishi) tumanlari qayd etildi.